

Nuh alayhissalomning da'vati



13:55 / 23.12.2019 2388

16

Nuh, qavmini da'vat qildi, va nasihatgo'y bo'lishga harakat qildi.

«Ey qavmim, albatta men siz uchun ochiq-oydin ogohlantiruvchiman. Allohga ibodat qilinglar, Unga taqvo qilinglar va menga itoat qilinglar. U sizlarning gunohlaringizdan mag'firat qiladir va sizni belgilangan ajalgacha qo'yib qo'yadi. Agar bilsangiz, albatta, Allohning ajali orqaga surilmaydi», dedi.» (Nuh-2-3-4).

Alloh ulardan yomg'irni to'sib qo'ygan va ularga g'azab qilgan edi. Oqibatda, ekin va nasl kamayib ketdi.

Nuh: «Ey qavmim! Agar iymon keltirsangiz, Alloh sizlardan rozi bo'ladi va bu azob sizlardan ketadi. Sizlarga yomg'irni yuboradi, sizlarni rizqingiz va bolalaringizga baraka beradi», dedi. Nuh qavmini Allohga da'vat qilib, ularga: Allohni tanimaysizlarmi? Atrofingizdagi bu narsalar Allohning oyat (belgi)lari-ku? Ularga qaramaysizlarmi? Osmon va yerga qaramaysizlarmi? Quyosh va oyga qaramaysizlarmi? Osmonlarni kim yaratdi? Kim oyni nur va quyoshni ziyo taratuvchi qildi? Sizlarni kim yaratdi? Kim sizlarga yerni gilam qilib to'shab berdi? Lekin Nuhning qavmi aql yuritmadilar. Lekin Nuhning qavmi iymon keltirmadilar. Balki, Nuh ularni Allohga da'vat qilsa, barmoqlarini quloqlariga

tiqib oldilar.

Eshitmagan kishi qanday qilib tushunadi? Eshitishni xohlamagan kishi qanday eshitadi